

## **HARBIY XIZMATCHI OILASIDAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Sa'dullayev Abdulhafiz**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini  
tarbiyaviy-psixologik ta'minlash yo'nalishi 3-bosqich kursanti

**Annotatsiya:** Harbiy xizmat tizimida shaxs xarakterini tarbiyalash doimo markaziy o'rinda bo'lib kelgan. Harbiy g'alaba faqat qurol-yarog' kuchiga emas, balki xizmat qilayotgan shaxsning ruhiy qudrati va axloqiy qiyofasiga ham tayanadi. Ayniqsa ofitserlar zimmasiga nafaqat jangovar boshqaruv, balki askarning shaxsiy kamoloti va axloqiy qiyofasini shakllantirish mas'uliyati yuklatiladi. Biroq bugungi kunda harbiy shaxsning individualligi faqat xizmat samaradorligi bilan emas, balki oilaviy muhitning barqarorligi va psixologik farovonligi bilan ham chambarchas bog'liq. Shu sababli, harbiy xarakterning tarkibiy qismlarini oilaviy tizimga ko'rsatadigan ta'siri bilan birga ko'rish zarur.

**Kalit so'zlar:** harbiy xarakter, harbiy shaxs xususiyatlari, stress, agressiya, depressiya, symptom, professional orientatsiya, rotatsion adaptatsiya.

Harbiy xizmatchilar oilasi kasbiy faoliyat oilaviy munosabatlar chatishtiriladigan noyob ijtimoiy-psixologik tizimdir. Xizmatning xavf va beqarorliklari fonida umumiy oilaviy qadriyatlarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash er-xotin jipsligini mustahkamlaydi, stressga chidamlilikni oshiradi, ijtimoiy funksiyalarni barqarorlashtiradi. Psixologik konsultatsiya va harbiy psixologlar tizimli ishtiroki bu jarayonning markaziy mexanizmi bo'lib, natijada nafaqat oilaviy farovonlik, balki harbiy xizmatchining xizmat samaradorligi ham ortadi; bu esa o'z navbatida davlat mudofaa salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xizmatning xavfli sharoitlari, uzoq muddatli stress, psixologik zo'riqish, jangovar holatlar, jarohatlar va oiladan uzoqda bo'lish holatlari bularning barchasi ruhiy buzilishlar, jumladan depressiyaning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

AQSHda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, Iroq va Afg'onistonda xizmat qilgan harbiylarning 15 foizi depressiya simptomlarini boshdan kechirgan. Mutaxassislar bu ko'rsatkich real holatda yanada yuqori bo'lishi mumkinligini ta'kidlashadi, chunki ko'plab harbiylar psixiatrik yordamga murojaat qilmaydilar. Bundan tashqari, jangovar xizmat chog'ida bosh miyaning chayqalishi yoki boshqa turdagi travmalar miyada organik o'zgarishlarni keltirib chiqarib, depressiv simptomatikani kuchaytirishi mumkin. Psixologiyada xarakter shaxsning tashqi olam va o'ziga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi, turli sharoitlarda xulq-atvorini belgilaydigan nisbatan barqaror sifatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Harbiy xarakter esa kasb talablari bilan uyg'un bo'lgan, kasbga xos qadriyatlar va o'zini tutish me'yorlarini ifodalovchi sifatlar tizimidir. Ana shu sifatlar majmui nafaqat xizmatdagi qarorlar va xatti-harakatlarga, balki oiladagi rollar taqsimoti, muloqot sifati, ota-onalik amaliyoti va turmush o'rtoqlar o'rtasidagi emotsional yaqinlikka ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Harbiy xarakter murakkabligi, avvalo, unga qo'yiladigan talablar ziddiyatidan kelib chiqadi. Bu ziddiyatlar xizmat samaradorligi uchun zarur bo'lsa-da, ularni psixologik jihatdan muvozanatlash oilaviy muhit barqarorligi uchun ham shartdir.

Harbiy kasb qat'iyat, jasorat, dadillik, tezkor qaror kabi irodaviy fazilatlarni talab etadi. Bu sifatlar jangovar vaziyatda ijobiy, oilada esa ikkiyoqlama ta'sir qiladi. Bir tomondan, qat'iyatlilik oilada ishonch va barqarorlik hissini mustahkamlaydi: turmush o'rtog'i va farzandlar "tayanch" shaxsga suyanadi. Ikkinchi tomondan, haddan tashqari qattiqqo'llik muloqotda bir tomonlama buyruq-ohangga, hissiyotlarni bildirishdan tiyilishga, yaqinlikning sovishiga olib kelishi mumkin. Oilaviy muhit uchun zarur bo'lgan g'amxo'rlik, odoblilik, do'stona hamkorlik va vatanparvarlik ruhidagi tarbiya bularning barchasi harbiy shaxsning emotsional va axloqiy qiyofasi bilan uyg'unlashgandagina bolalarda xavfsizlik hissi, me'yoriy tartib, ota-onaga ishonch barqaror bo'ladi.

Xizmatning o'ziga xosligi doimiy xavf, yuqori javobgarlik va noaniqlik harbiy shaxsdan yuqori stressga chidamlilikni talab etadi. Bu sifat oilada tinchlik, barqaror his-tuyg'u, davra-odatiy rejimni ta'minlashga yordam beradi. Ammo xizmat stressini oilaga

“ko‘chirib kelish” xavfi ham real: charchoq, tezkor buyruq-ohang, past sabr darajasi oilada taqiqllovchi muloqot, haddan ziyod talabchanlik va buzilgan emotsional aloqaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun harbiy shaxs o‘z psixik o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini uyda ham ongli qo‘llashi zarur: tensiya tushiruvchi mashqlar, suhbatga tayyorlik, bolalar his-tuyg‘ularini nomlash va tinglash, turmush o‘rtog‘i bilan teng bahs madaniyati va hokazo.

Oila har qanday shaxs uchun hayotiy qadriyatlar manbai bo‘lsa, harbiy xizmatchi uchun bu qadriyat yanada yuksak ma‘no kasb etadi. Harbiy shaxs uchun oila nafaqat shaxsiy baxt va hissiy tayanch manbai, balki axloqiy-psixologik barqarorlik, kasbiy faoliyatdagi samaradorlik va harbiy jamoa ichidagi sog‘lom muhitni shakllantirish omilidir. Psixolog G.M.Andreyeva ta’kidlaganidek, oila kichik ijtimoiy guruh sifatida shaxsning ijtimoiylashtiruvchi mexanizmlarini faol ishga soladi; unda “shaxsning ichki dunyosi” ijtimoiy rollar tizimi orqali rivojlanadi [1]. Shu bois, harbiy oilani ijtimoiy birlik sifatida tahlil qilishda uning xizmatga xos psixologik o‘ziga xosliklarini hisobga olish zarur. Harbiy sotsiologlar va psixologlar tomonidan harbiylarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga bag‘ishlangan kuzatuvlar natijasida bir qator muhim tendensiyalar aniqlangan. Yosh ofitserlar orasida turmush qurmaganlar soni ikki baravar oshgan. Nikoh yoshining o‘rtacha ko‘rsatkichi 23-24 yoshdan 28-30 yoshgacha siljigan. Har ikki yosh oiladan birida farzand yo‘q yoki faqat bitta bola mavjud. Ko‘p hollarda bola 3-5 yillik turmush tajribasidan so‘ng tug‘ilmoqda. Ajralishlar sonining ko‘payishi nafaqat axloqiy-insoniy qadriyatlar inqirozi, balki harbiy xizmatning o‘ziga xos omillari (uzoq safarlar, joy almashish, ruhiy zo‘riqish) bilan bog‘liq. Xizmat majburiyatlari tufayli oilaviy muloqotning yetishmasligi oilaning ruhiy iqlimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi hollarda turmush o‘rtog‘ining harbiy burch ijtimoiy ahamiyatini to‘liq anglamasligi oilaviy ziddiyatlar manbai bo‘lib chiqadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erkak-harbiylar uchun asosiy qadriyatlar muhabbat, farzandlar va o‘zaro tushunish, ayollar uchun esa bolalar, er, sog‘lik va oilaviy tinchlik (Solovyova, 2020). Harbiy erkaklar oilani “ruhiy tayanch va tiklanish maydoni” sifatida

ko‘radi; ular uchun uy shunchaki yashash joyi emas, balki axloqiy va hissiy barqarorlikni tiklovchi makondir.

Psixolog L.I.Antsyferova qayd etadi: “Insonning ruhiy barqarorligi ko‘p hollarda uning yaqinlar bilan bo‘lgan iliq munosabatlari, mehr-muruvvat muhiti va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanish tizimiga bog‘liq”[4]. Shundan kelib chiqib, harbiy oilaning psixologik sog‘lomligi xizmat samaradorligi va shaxsning irodaviy-axloqiy barqarorligi garovidir. Oila psixologiyasi qonuniyatlariga ko‘ra [3], shaxsiy moslikning ikki darajasi mavjud:

- tug‘ma farqlar (temperament, jins, fiziologik tizimlar) kontrastli bo‘lishi ma’qul;
- ijtimoiy orttirilgan xususiyatlar (tarbiya, qadriyatlar, maqsadlar) o‘xshash bo‘lishi kerak.

Demak, harbiy oila barqarorligi uchun farqlilik (iroda, qat’iyat) hissiy uyg‘unlik bilan muvofiqlashgan bo‘lishi zarur.

Shunday qilib, harbiy shaxs uchun oila bu axloqiy tayanch, psixologik barqarorlik manbai va ruhiy energiya zaxirasidir. Oilaviy totuvlik harbiy xizmatchining hissiy turg‘unligini oshiradi, stresslarni yumshatadi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi va xizmat samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixolog S. L.Rubinshteyn aytganidek, “insonning ruhiy hayoti tashqi sharoitlardan emas, balki ichki munosabatlar tizimidan boshqariladi”. Demak, harbiy oila bu insonparvarlik, fidoyilik va sabrning sinov maydoni bo‘lib, uning mustahkamligi harbiy xizmatchining ruhiy sog‘lomligi va davlat xavfsizligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Oila va harbiy xizmat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ko‘plab omillar bilan belgilanadi. Bu omillar ofitserning Vatan himoyasi bilan bog‘liq kasbiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi. Harbiy xizmatchining qanday qo‘shin turiga mansubligi, xizmat faoliyatining xususiyati, bo‘linmalar joylashuvi va ularning ko‘chuvchanligi, jangga shaylik bilan bevosita bog‘liqlik bularning barchasi oilaning ichki munosabatlari, demakki, oilaning ishlashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Андреева Т. В. Психология современной семьи: монография. – СПб.: Речь, 2005. – 436 с.
2. Рубаненко А.В. Социально-психологические особенности семей военнослужащих и социальная работа с ними / А. В. Рубаненко // Социокультурные и психологические проблемы современной семьи: актуальные вопросы сопровождения и поддержки: Материалы III Всероссийской научно-практической конференции с международным участием, Тула, 23–24 ноября 2017 года. – Тула : Издательство ТГПУ им. Л. Н. Толстого, 2018. – С. 207-208.
3. Руководство по психологической работе в ВС РФ. – 2006. –156 с.
4. Туринцева Е.А. Особенности становления и развития семьи военнослужащего в условиях закрытой социальной системы: автореф. дисс. ... канд. соц. наук. М., 2011. 21 с.
5. Филимонов И.А., Поминова О.Л. Проблема осознания семейных ценностей у курсантов военных образовательных организаций высшего образования. Научное мнение. 2020; № 4, с. 41 – 47.